

# AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

## AL-BUKHARI

Scientific journal

# AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

ISSN: 3030-3273

## AL-BUKHARI

Scientific journal



# AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

(To'rtinchi son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qaroriga muvofiq tarix va filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Toshkent – 2025

Bosh muharrir:

*Farhod Maksudov, tarix fanlari doktori (DSc)*

Bosh muharrir o‘rinbosari:

*Malika Nasirova, filologiya fanlari nomzodi, professor*

Mas’ul muharrir:

*Govhar Rahmatova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

### “Al-Buxoriy”

#### ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

1. Azamat Ziyov t.f.d., akademik, professor – tahrir hay’ati a’zosi;
2. Zohidjon Islomov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
3. Shorustam Shomusarov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
4. Durdona Lutfullayeva f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
5. Komiljon Rahimov t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
6. Shamsiddin Kamoliddinov t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
7. Xolida Alimova f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
8. Aftondil Erkinov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
9. Albert Burxanov t.f.d., akademik (Tatariston) – tahrir hay’ati a’zosi;
10. Samal Tuleubaeva f.f.d., professor (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;
11. Sayfullo Mullodjanov t.f.d., professor (Tojikiston) – tahrir hay’ati a’zosi;
12. Zilola Xudoyberganova f.f.d., professor (Turkiya) – tahrir hay’ati a’zosi;
13. Akram Habibullayev t.f.d., professor (AQSh) – tahrir hay’ati a’zosi;
14. Ashirbek Mo‘minov t.f.d., dotsent (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;
15. Murtazo Saidumarov f.f.n., professor (Saudiya Arabistoni) – tahrir hay’ati a’zosi.

## MUNDARIJA

### FILOLOGIYA

<b>Axmedova Dilfuza Rafukjanovna, Azimbayeva Nargiza To‘xtamuradovna</b> Komparativlik vositalarining fors va o‘zbek tillarida ifodalanishi hamda ularning madaniy va ijtimoiy-lingvistik talqinlari .....	4
<b>Salimova Zebo Rustam qizi</b> Turk tilida fitomorf birliklarning lingvokulturologik talqini .....	21
<b>Boboyeva Madina Xaydarovna</b> So‘z birikmasining ko‘p funksiyalilik xususiyati .....	29
<b>Raxmatova Bahora Ibodulla qizi</b> Huquqiy matnlarning kommunikativ tuzilmasida assertiv va direktiv aklarning ahamiyati.....	39
<b>Nizamova Salomat Usmanovna</b> Family va kinship qarindoshlik atamaları diaxronik tadqiqot predmeti sifatida ....	49
<b>Yakubova Feruza Rashidovna</b> “Nuzhau-t-tarf fi i’lmi-s-sarf” asarining qo‘lyozma va toshbosma nusxalari .....	57
<b>Raxmatullayev Nodir Nuritdinovich</b> Maliho tazkirasida XVII asr Movarounnahrda madaniy, ilmiy va adabiy hayotning rivoji.....	67

### TARIX

<b>Ismatullayev Farxodjon Odiljonovich</b> O‘zbekiston – Yevropa ittifoqi munosabatlarining mahalliy tarixshunoslikda tadqiq etilishi: tendensiyalar va yondashuvlar.....	81
<b>Пасилов Баходир Абдуллаевич</b> Этносы и этнополитические процессы в туркестане в 1917-1924 гг. ....	91
<b>Хо‘jaxonov Ismoiljon Mansurovich</b> “O‘zbek” nomining kelib chiqishi haqida ba’zi ma’lumotlar .....	102
<b>Kamolov Jahongir Mamasidiqovich</b> Eftaliylarda davlat mafkurasi, huquq va mudofaa tizimi .....	109
<b>Ismatullayeva Zebo Shukurjanovna</b> O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi tibbiy va ekologik hamkorlikning rivojlanish tendensiyalari .....	120
<b>Norbekov Suhrob Farxod o‘g‘li</b> Sharqiy slavyan diasporasi ayollarining turkiston mintaqasidagi ijtimoiy-siyosiy faolligi (1918-1924) .....	129
<b>Xudayberdiyev Farrux Amankeldiyevich</b> Amir Temur va Yevropa davlatlari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar .....	140
<b>Rajabov Jo‘rabek Muzaffar o‘g‘li</b> Shayboniylar davrida Dashti Qipchoq o‘zbeklarining migratsiyasi .....	147

**O‘ZBEKISTON – YEVROPA ITTIFOQI MUNOSABATLARINING  
MAHALLIY TARIXSHUNOSLIKDA TADQIQ ETILISHI:  
TENDENSIYALAR VA YONDASHUVLAR**

**THE STUDY OF UZBEKISTAN–EUROPEAN UNION RELATIONS IN  
NATIONAL HISTORIOGRAPHY: TRENDS AND APPROACHES**

**ИЗУЧЕНИЕ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И  
ЕВРОПЕЙСКИМ СОЮЗОМ В ОТЕЧЕСТВЕННОЙ ИСТОРИОГРАФИИ:  
ТЕНДЕНЦИИ И ПОДХОДЫ**

**Ismatullayev Farxodjon Odiljonvich**

*Oriental universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar”  
kafedrasi professori v.b., tarix fanlari doktori(DSc)*

*Tel.: +998 938040089*

*E-mail: [ismatullayevfarxodjon@gmail.com](mailto:ismatullayevfarxodjon@gmail.com)*

*Orcid 0009-0004-3159-4371*

**Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik aloqalari mahalliy tarixshunoslik nuqtayi nazaridan atroflicha tahlil qilingan. Shu maqsadda muallif mavjud tadqiqotlarni va ilmiy adabiyotlarni o‘rganib, ularni mazmun va yo‘nalishlariga ko‘ra guruhlariga ajratib, ko‘tarilgan masalalar bo‘yicha solishtirma tahlil olib borgan. Muallif o‘zaro hamkorlikka oid ilmiy tadqiqotlarning natijalarini inobatga olib, guruhlar orasidagi g‘oya va konsepsiyalarini ham yoritishga harakat qilgan, bu esa maqolaning ilmiy ahamiyatini oshirgan. Shu bilan birga, muallif tarixshunoslik izlanishlari orqali hamkorlikning mohiyati va uning rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash mumkinligi haqida mulohaza yuritgan va bu yo‘nalishda yaxshi natijalarga erishgan. Maqolada, shuningdek, O‘zbekiston hamda Yevropa Ittifoqi hamkorligining manbalar va adabiyotlarini tahlil qilish orqali hamkorlikning umumiy manzarasi va aloqalarning ko‘lami ham ko‘rsatilgan. Bu esa ilmiy tadqiqotning ham nazariy, ham amaliy jihatdan qiymatini oshirib, masalaga kompleks yondashuvni ta’minlagan.

**Kalit so‘zlar:** *O‘zbekiston, Yevropa Ittifoqi, tarixshunoslik, hamkorlik, integratsiya, siyosiy jarayonlar, milliy mentalitet, maslahat uchrashuvi.*

**Abstract.** The article provides a comprehensive analysis of Uzbekistan’s cooperation with the European Union from the perspective of national historiography. For this purpose, the author examines existing research and scholarly literature, classifying them according to their content and thematic focus, and conducts a comparative analysis of the issues addressed. Taking into account the findings of academic studies on bilateral cooperation, the author also attempts to highlight the ideas and conceptual approaches within these groups, which enhances the scholarly

value of the article. At the same time, the author argues that it is possible to identify the essence and developmental trajectories of cooperation through historiographical research and achieves notable results in this direction. The article also presents an overview of the general landscape and scope of Uzbekistan–EU cooperation by analyzing the relevant sources and literature. This, in turn, increases the theoretical and practical significance of the research and ensures a comprehensive approach to the subject.

**Keywords:** *Uzbekistan, European Union, historiography, cooperation, integration, political processes, national mentality, consultative meeting.*

**Аннотация.** В статье представлен всесторонний анализ сотрудничества Узбекистана с Европейским Союзом в контексте национальной историографии. С этой целью автор изучает существующие исследования и научную литературу, классифицируя их по содержанию и тематической направленности, а также проводит сравнительный анализ рассматриваемых в них вопросов. Учитывая выводы академических работ, посвящённых двустороннему сотрудничеству, автор стремится выявить идеи и концептуальные подходы, присущие этим группам исследований, что повышает научную ценность статьи. Одновременно автор утверждает, что посредством историографического анализа возможно определить сущность и траектории развития сотрудничества, и достигает в этом направлении заметных результатов. В статье также представлен общий обзор состояния и масштабов сотрудничества между Узбекистаном и ЕС на основе анализа соответствующих источников и литературы. Всё это, в свою очередь, усиливает теоретическую и практическую значимость исследования и обеспечивает комплексный подход к рассматриваемой проблематике.

**Ключевые слова:** *Узбекистан, Европейский союз, историография, сотрудничество, интеграция, политические процессы, национальный менталитет, консультационная встреча.*

### KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik aloqalari mustaqillik yillarida bir qator tarixshunoslar, siyosatshunoslar, huquqshunoslar va boshqa sohaviy mutaxassislar tomonidan o‘rganib chiqilgan, ularning tadqiqotlarida hamkorlikning ayrim yo‘nalishlariga oid muhim ma’lumotlar o‘z aksini topgan. Shuningdek, sovet tizimi buzilib, uning o‘rnida yangi mustaqil davlatlar yuzaga kelishi va ularning bugungi faoliyati ko‘plab xalqaro olimlar tomonidan ham tadqiq etilmoqda. Bundan tashqari, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham ushbu masalani o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. Chunki rivojlanish yo‘liga o‘tgan Markaziy Osiyo davlatlari o‘zlari uchun andoza qidirib, turli davlatlarning bosib o‘tgan yo‘llarini o‘rganib chiqmoqda. Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqining integratsiya tajribasi

Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham o'ziga xos model bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu jihatlariga e'tibor qaratgan olimlar ushbu masalaga kengroq yondashib, ilmiy – falsafiy nuqtayi nazardan tahlil etishga harakat qilishmoqda. Turkum maqolalar e'lon qilinib, ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada olimlar tomonidan mavzuga oid yozilgan ilmiy tadqiqotlarni yaxlit o'rganish va tahlil etish maqsad qilingan.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Agar biz o'tgan o'ttiz besh yillik hamkorlik tarixini tahlil qilar ekanmiz, ushbu davr mobaynida O'zbekiston va xalqaro hamjamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarning turli jabhalari mahalliy ekspertlar, tarixchilar, siyosatshunoslar hamda boshqa soha vakillari tomonidan izchil tadqiq etilganiga guvoh bo'lamiz. Mazkur tadqiqotlarda mamlakatning mustaqillikka erishgan ilk yillaridan boshlab shakllangan tashqi siyosiy strategiyasi, uning asosiy yo'nalishlari hamda davlatning xalqaro maydonga chiqish mexanizmlari alohida ilmiy qiziqish uyg'otgan. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda O'zbekistonning global jarayonlarda tutgan o'rni, xalqaro munosabatlarning zamonaviy arxitekturasini shakllantirishdagi ishtiroki, shuningdek, jahon hamjamiyati mamlakatlari va yetakchi xalqaro tashkilotlar bilan olib borayotgan ko'p qirrali va o'zaro manfaatli hamkorlik siyosati tizimli ravishda yoritib borilgan. Tadqiqotlar davomida ikki va ko'p tomonlama diplomatik aloqalarning evolyutsiyasi, iqtisodiy, madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy hamkorlikning o'ziga xosligi va istiqbollari ham ilmiy tahlil markazida bo'lgan. Umuman olganda, o'tgan davr mobaynida yaratilgan ilmiy meros O'zbekistonning tashqi siyosiy faoliyatini, xalqaro integratsiya jarayonlarini hamda davlatning global tizimdagi o'rnini chuqur o'rganish imkonini beruvchi muhim manbalar majmuini shakllantirgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Ular orasida, eng avvalo, A.Kasimov, Z. Jo'rayev, M. Rahimov, G. Mo'minova, H. Yunusov, O. Abdumo'minovlarni monografiyalarini tilga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mustaqillikning dastlabki yillarida yaratilgan ushbu mualliflarning ishlarida respublikaning jahon hamjamiyatiga kirib borishi milliy mustaqillik mafkurasi nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Shuningdek, ularda mamlakat tashqi siyosatining shakllanishi va rivojlanishi masalalari ko'rib chiqilgan hamda mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari va ustuvor yo'nalishlari yoritib berilgan.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan monografik ishlar bir qator o'zbekistonlik olimlar, jumladan, A. Adegezalov va S. Bo'ronovlar tomonidan nashr etilgan. Xususan, S.Sharapovanning monografiyasida mustaqil O'zbekistonning davlatlararo munosabatlar o'rnatilishi bilan umumjahon tizimiga kirib borishining o'ziga xos jihatlarini, respublikaning tashqi siyosatiga tarixiy-ma'naviy meros hamda milliy mentalitetning o'ziga xosligi,

madaniy qadriyatlar, mustaqillik mafkurasi kabi omillarning ta'siri tahlil qilingan. X.G.G'ulomov va A.G.Xolliyevlarning monografiyalarida O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida jahonning yirik mamlakatlari hisoblangan Buyuk Britaniya va AQSh bilan olib borgan teng huquqli aloqalari aniq daliliy ma'lumotlar asosida yoritib berilgan. O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi hamkorlik aloqalariga bag'ishlangan A.Qirg'izboyevning monografiyasida O'zbekistonning Osiyo qit'asidagi yetakchi davlatlar bilan ko'p tomonlama hamkorligi keng ko'lamda, daliliy materiallar jalb qilingan holda tahlil etilgan.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqotni amalga oshirishda tarixshunoslikka murojaat etilgan holda mavjud monografiyalar, dissertatsiyalar, maqolalar ilmiy tadqiq etildi. Zarur o'rinlarda davriy matbuot materiallaridan ham unumli foydalanildi. Jamlangan ma'lumotlar tasniflangan holda qiyosiy tahlil etildi va yangi tadqiqotlar uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan yo'nalishlar ishlab chiqildi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Mustaqillik yillarida mahalliy olimlar tomonidan O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi va unga a'zo mamlakatlar bilan munosabatlari tarixiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari, ya'ni doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari yaratildi. Ushbu tadqiqotlarni tahlil qilish va o'rganish natijasida, shu narsa aniqlandiki, mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlar va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar O'zbekistonda xalqaro aloqalar va tarix fani taraqqiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'ldi. Shu bilan birga hali tadqiq etilishi lozim bo'lgan yo'nalishlarni aniqlash imkoni yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyatiga va xalqaro hamkorlik masalalariga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyalari qatoriga E.Z.Nuriddinov, A.Qirg'izboyev, S.Sharapova, M.Rahimov, D.Sayfullayev, H. Jumaniyozov va O. Abdumo'minovlarning tadqiqotlarini kiritish mumkin. Mazkur mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari mustaqil O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy strategiyasi, tamoyillari va ustuvor yo'nalishlarining amaldagi holatini tarix fanida ilmiy nuqtayi nazardan o'rganilganligi va tahlil etilganligidan dalolat beradi. Jumladan, E.Z.Nuriddinovning doktorlik dissertatsiyasi mustaqillik yillarida O'zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan keng qamrovli hamkorlik aloqalariga bag'ishlangan bo'lsa (Nuriddinov E. Z., 2000:305), A.Qirg'izboyevning dissertatsiyasida O'zbekistonning Osiyo mamlakatlari bilan turli yo'nalishlarda olib borilgan aloqalari yoritib berilgan (Qirg'izboyev A., 2004: 338) S.Sharapova esa mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining zamonaviy xalqaro

munosabatlarda olib borgan ko'p qirrali diplomatik siyosatini ochib bergan (Sharapova S., 2006:50). D.Sayfullayev O'zbekistonda madaniy diplomatiyaning shakllanishi, rivojlanishi va istiqbollari haqida fikr yuritgan. Shu bilan birga xalqaro munosabatlarda madaniy diplomatiyaning o'rni naqadar muhim ekanligini ilmiy asoslashga harakat qilgan (Sayfullayev D., 2020: 321). M. Rahimov esa Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta'minlashda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritib, o'zining ilmiy xulosalarini olg'a surgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ushbu tadqiqotlarning qiymati respublikadagi davlat arxivi, turli vazirlik va tashkilotlarning joriy arxiv hamda davlat statistika agentligining ma'lumotlariga asoslanganligi bilan va ularni ilk bor ilmiy jarayonda qo'llanganligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining jahondagi ko'plab taraqqiy etgan mamlakatlar bilan ikki tomonlama hamkorlik aloqalari o'rnatilgan va olib borilayotgan jarayonlarni yoritishga bag'ishlangan bir qator nomzodlik dissertatsiyalarini ham ko'rsatish mumkin. Bu tadqiqotlar, mustaqillikka erishilgandan so'ng O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati mamlakatlari bilan teng huquqli asosda o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatib, zamonaviy xalqaro munosabatlarning ishtirokchisiga aylanganligini namoyish etadi. Shuningdek, mamlakatning ayrim xalqaro tashkilotlar bilan olib borayotgan hamkorlik aloqalarini yoritishga bag'ishlangan tadqiqotlar ham mavjud. Bular ichida tadqiqotga taalluqli L.S.Xudoyqulova, G.Mo'minova va H. Yunusovlarning ilmiy ishlarini alohida aytib o'tish joiz. Xususan, L.S.Xudoyqulova O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini Yevropa Ittifoqining TESIS TEMPUS dasturi doirasida yoritishga harakat qilgan. Keyingi tadqiqotchilar ushbu mavzuni huquqiy nuqtayi nazardan o'rganib, hamkorlikning siyosiy-huquqiy jihatlarini ilmiy tahlil qilgan. Tadqiqotlarda ko'tarilgan masalalarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, nomlari qayd etilgan dissertatsiyalarda O'zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi bilan har tomonlama hamkorligi masalalari tarixiy nuqtayi nazardan batafsil ochib berilmagan.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning xalqaro aloqalari mavzusiga bag'ishlab yozilgan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarining tobora ortib borishi ushbu mavzuning naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatib, mamlakatning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi masalalarini yanada kengroq tadqiq qilish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda. O'z navbatida, ilmiy tadqiqotlarda olg'a surilgan g'oyalar ushbu masalaning naqadar muhimligini ko'rsatib, yangi tadqiqotlarda atroflicha yoritishda o'ziga xos yo'nalish va manba bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda Yevropa Ittifoqining kengayib borishi, mavjud muammolar, boshqa mintaqalarga integratsiya jarayonlarida namuna modeli sifatidagi o'rni hamda xalqaro munosabatlar tizimidagi rolining kuchayib borishi (Nazarbayev N.A., 1997:

480), kabi jihatlari ko‘plab tarixchi va siyosatshunos olimlarning tadqiqot ob‘ektiga aylangan. Jumladan, tadqiqotlarda Yevropa Ittifoqining Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi hamda bevosita Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarining rivojlanishi, yangi bitimlarni imzolanishi, yangi strategiyalarni ishlab chiqilishiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar ya‘ni dissertatsiyalar MDH mamlakatlarida ham bajarildi (Sokolova N.V., 2010. 26). Bevosita, ayrim tadqiqotchilar Yevropa Ittifoqi bilan Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq etishda ko‘proq, o‘zaro ikki tomonlama savdo-iqtisodiy (Laumulin M.T., 2009: 72), va madaniy-gumanitar hamkorlikning rivojlanishi (Gubaydullina M.Sh., 2010: 45), shu bilan birga Markaziy Osiyoning dunyo hamjamiyatidagi o‘rni (Tokayev K.K., 2008: 208), hamda mintaqadagi integratsiya jarayonlariga Yevropa Ittifoqining yuritgan siyosati (Inomjonov X., 2008: 475) masalalariga e‘tibor qaratgan (Bolgova I.V., 2005. 26). Markaziy Osiyo davlatlarining ko‘plab olimlari, jumladan J.U.Ibrashev va E.T.Esenbayevava boshqalar tomonidan mintaqa davlatlarining Yevropa Ittifoqi bilan hamkorligi (Ibrashev J.U., Yesenbayeva E.T., 2001: 370) masalalariga bag‘ishlangan ilmiy maqola va monografiyalar nashr etilgan (Akimbekov S.M., 2009:71). Ayniqsa, R.Sayfulinning tadqiqotlarida Markaziy Osiyo davlatlaridagi integratsiya borasidagi mavjud muammolar ko‘proq ochib berilgan (R.Sh. Sayfulin., 2007: 296). Tadqiqotchilar orasida K.I.Bayzakova Yevropa Ittifoqining faoliyatiga tanqidiy qaragani holda, uning loyihalarini istiqbolda Markaziy Osiyo mintaqasida amalga oshirib bo‘lmasligini ta‘kidlab, asoslashga urinadi (K.I.Bayzakova., 2011:15). Demak, ushbu masala bo‘yicha nafaqat mahalliy tadqiqotchilar, balki qo‘shni davlatdagi olimlar ham o‘zlarining ilmiy tahlillarini berib kelmoqda. Yuqoridagi fikrlardan tadqiqotchilar masalaning ayrim tomonlarinigina tadqiq etishga, o‘zlarining ilmiy xulosalarini berishga uringanliklarini ko‘rish mumkin. Ammo aksariyat mualliflar Markaziy Osiyo kelajagini Yevropa Ittifoqi modelidagi integratsiyada ko‘rishadi. Bunga yagona til, din, umumiy madaniyat va tarixda qariyb yetmish yil birgalikda yashagan davr tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiqligini ta‘kidlaydi. Olimlarning qarashlari real voqelikka aylanayotganligini 2025-yil noyabr oyida Toshkentda o‘tgan navbatdagi “Markaziy Osiyo davlatlari maslahat uchrashuvi”da qabul qilingan qarorlar mazmunidan ham anglash mumkin bo‘ladi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida yangi xalqaro munosabatlar tizimining shakllanishi va jahon miqyosidagi global jarayonlarda faol ishtirok etishi bilan bog‘liq masalalar mahalliy hamda xorijiy ilmiy doiralarda chuqur ilmiy qiziqish uyg‘otdi. Bu jarayon, bir tomondan, ko‘p ming yillik o‘zbek davlatchiligi tarixining yangi bosqichini - mustaqillik davridagi tarixiy voqealar, ayniqsa mamlakatning tashqi siyosati va xalqaro munosabatlar sohasidagi

yangilanishlarni ilmiy jihatdan o'rganish zaruriyatini keltirib chiqardi. Natijada, O'zbekistonning tashqi siyosiy strategiyasi, mintaqaviy va global darajadagi o'rni, nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan ko'p qirrali hamkorligi kabi masalalarga bag'ishlangan salmoqli monografiyalar, maqolalar va keng qamrovli tadqiqotlar yaratildi.

Mustaqillik yillari davomida milliy tarixshunoslikda mazkur yo'nalish mustahkam ilmiy maktab sifatida shakllanib, mamlakatning tashqi munosabatlar sohasidagi yutuqlari va tajribalarini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini berdi. Shu bilan birga, O'zbekiston tashqi siyosati va xalqaro munosabatlarning rivojlanishi xorijiy ilmiy markazlar va chet el tadqiqotchilari tomonidan ham yuqori baholandi. Ular tomonidan chop etilgan ilmiy maqolalar, tahliliy izlanishlar va monografiyalar O'zbekistonning mintaqaviy barqarorlik, integratsiya jarayonlari va global hamkorlikka qo'shayotgan hissasiga doir fikrlarni yanada boyitdi. Umuman olganda, mazkur yo'nalishdagi milliy va xalqaro tadqiqotlar majmuasi O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'lini, uning tashqi siyosiy faoliyatining mohiyati va dinamikasini ilmiy anglashga xizmat qiluvchi muhim manbalar tizimini vujudga keltirdi.

Masala mohiyatidan kelib chiqqan holda quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- *Arxiv va diplomatik manbalardan foydalanishni kengaytirish.* Milliy arxiv fondlari, tashqi siyosat bo'yicha maxsus hujjatlar, EI institutlarining ochiq ma'lumotlar bazalaridan foydalanish munosabatlarning real tarixiy dinamikasini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

- *Mahalliy tarixshunoslikda mavjud bo'lgan bo'shliq va kamchiliklarni aniqlab, yangi ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirish.* Jumladan, xavfsizlik, raqamli diplomatiya, savdo siyosati, ta'lim va madaniyat sohalaridagi hamkorlik tarixini maxsus tadqiq etish istiqbolli yo'nalishlar sirasiga kiradi.

- *O'zbek va Yevropa tadqiqotchilari o'rtasida ilmiy hamkorlikni kengaytirish.* Qo'shma ilmiy loyihalar, konferensiyalar va akademik mobilitet dasturlarining kengayishi mavzu bo'yicha xalqaro ilmiy maktablar o'rtasida fikr almashuvni kuchaytiradi.

- *Yevropa Ittifoqi institutlari arxivlarida maxsus tarixiy izlanishlar olib borishni rag'batlantirish.* EI Komissiyasi, EI Kengashi va EI Parlamentining tarixiy hujjatlari ikki tomonlama munosabatlarning institutsional poydevorini chuqurroq yoritishga imkon beradi.

- *Tadqiqot natijalarining amaliyotga yo'naltirilishini kuchaytirish.* Olingan ilmiy xulosalar O'zbekistonning zamonaviy Yevropa siyosati, xalqaro hamkorlik strategiyasi va tashqi siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlariga ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi zarur.

- *Mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlar bibliografiyasini muntazam ravishda yangilab borish.* Mahalliy va xorijiy adabiyotlar monitoringi, yangilangan sharhlar va bibliografik ko'rsatkichlar kelgusidagi tadqiqotchilar uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

- *Mahalliy tarixshunoslikdagi mavjud natijalarni tahliliy jihatdan chuqurlashtirish.* Ilgari yaratilgan tadqiqotlarning konseptual xulosalarini qayta baholash, ulardagi metodologik yondashuvlarni zamonaviy xalqaro munosabatlar tahlil standartlari bilan uyg'unlashtirish talab etiladi.

- *O'zbekiston-EI munosabatlarining yangi davr bosqichini yorituvchi fundamental tadqiqotlar tayyorlash.* "Yangi O'zbekiston" davrida amalga oshirilayotgan islohotlar, modernizatsiya jarayonlari va ularning Yevropa bilan hamkorlikka ta'siri yangicha tarixiy tahlil talab qiladi.

- *Mahalliy ilmiy terminologiyani xalqaro standartlarga moslashtirish.* Termin va tushunchalar yagona ilmiy me'yor asosida qo'llanishi tadqiqotlarning xalqaro ilmiy maydonda tan olinishini oshiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Акимбеков С.М. (2009) Казахстан между Европой и Россией / Материалы международной научно-практической конференции "Казахстан - Россия - Европейский Союз: перспективы стратегического партнёрства (г. Алматы, 22 октября 2009 г.). Алматы, 2009. – С. 67-71.
2. Байзакова К.И. (2011) Фактор экономической дестабилизации ЕС и судьба программы «Пут в Европу» / Казахстан в глобальных процессах. 2011. №3. – С. 7-15.
3. Болгова И.В. (2005) Политика Европейского Союза в Закавказье и Центральной Азии: 1993-2004 гг.: Автореф. дис. ... канд. истор. наук. – Москва, 2005. –С. 26.
4. Губайдуллина М.Ш. (2010) Европейский Союз - Центральная Азия - Евразия: динамика интеграционных процессов / Вестник КазНУ, Алматы, 2010, №5-6. – С. 40 - 45.
5. Ибрашев Ж.У., Есенбаева Э.Т. (2001) Европейский Союз во внешней политике Казахстана. – Алматы, 2001. –370 с.
6. Иномжонов Х. (2008) Отношения Узбекистана с Европейским Союзом // Центральная Азия: внешний взгляд. Международная политика с центральноазиатской точки зрения. – Берлин: Фонд им. Ф. Эберта, 2008. (текст на рус., нем.). – С. 464–475.
7. Қирғизбоев А. (2004) Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан ҳамкорлиги: Тарих фан. д-ри ... дисс. – Тошкент: ЎЗР ФА, 2004. – 338 б.

8. Лаумулин М.Т. (2009) Стратегия Европейского Союза в Центральной Азии: основные этапы и цели // Казахстан в глобальных процессах. – Алматы. 2009. №2 (20). – С. 72-85.
9. Назарбаев Н.А. (1997) Европейский союз: идеи, практика, перспективы. 1994-1997. – Москва: Фонд содействия развитию социальных и политических наук, 1997. – 480 с.
10. Нуриддинов Э. З. (2000) Международное сотрудничество Узбекистана со странами Европы в условиях независимости: становление, развитие, проблемы. Дис. ... докт. ист. наук. – Ташкент: АН РУз, 2000. – 305 с.
11. Сайфуллаев Д. (2020) Ўзбекистон Республикаси маданият дипломатияси шаклланиши ва ривожланиши : Тарих фан. д-ри(ДСс) ... дисс. – Тошкент: ТДШУ, 2020. – 321 б.
12. Сайфулин Р.Ш. (2007) Центральноазиатская интеграция: сложный путь от декларации к реалиям / Проекты сотрудничества и интеграции для Центральной Азии: сравнительный анализ, возможности и перспективы / Под ред. А. А. Князева. – Бишкек, 2007. – 296 с.
13. Соколова Н. В. (2010) Политическая интеграция: генезис и перспективы развития (на примере ЕС, СНГ, Союзного государства России и Беларуси). Автореф. дис. ... канд. полит. наук. – Воронеж, 2010. – 26.
14. Токаев К.К. (2008) Векторы внешней политики. Европейское направление. – Алматы, 2008. Кн. 2. – 208 с.
15. Шарапова С. (2006) Многосторонняя дипломатия Республики Узбекистан: участие в универсальных, региональных и субрегиональных организациях, межгосударственных объединениях. Автореф. дис. ... д-ра полит. наук. – Ташкент: АГОСП РУз, 2006. – 50 с.

#### REFERENCES:

1. Akimbekov S.M. (2009) Kazaxstan mejdu Yevropoy i Rossiey / Materialy mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii “Kazaxstan - Rossiya - Yevropeyskiy Soyuz: perspektivy strategicheskogo partnyorstva (g. Almati, 22 oktyabrya 2009 g.). Almati. (In Russian)
2. Bayzakova K.I. (2011) Faktor ekonomicheskoy destabilizatsii YeS i sudba programmy «Put v Yevropu» / Kazaxstan v globalnykh protsessax. №3. (In Russian)
3. Bolgova I.V. (2005) Politika Yevropeyskogo Soyuza v Zakavkaze i Sentralnoy Azii: 1993-2004 gg.: Avtoref. dis. ... kand. istor. nauk. – Moskva. (In Russian)
4. Gubaydullina M.Sh. (2010) Yevropeyskiy Soyuz - Sentralnaya Aziya - Yevraziya: dinamika integratsionnykh protsessov / Vestnik KazNU, Almati. (In Russian)

5. Ibrashev J.U., Yesenbaeva E.T. (2001) Yevropeyskiy Soyuz vo vneshney politike Kazaxstana. – Almati. (In Russian)
6. Inomjonov X. (2008) Otnoshenie Uzbekistana s Yevropeyskim Soyuzom // Sentralnaya Aziya: vneshniy vzglyad. Mejdunarodnaya politika s sentralno-aziatskoy tochki zreniya. Berlin: Fond im. F.Eberta. (In Russian)
7. Laumulin M.T. (2009) Strategiya Yevropeyskogo Soyuz v Sentralnoy Azii: osnovnyye etapy i seli // Kazaxstan v globalnykh protsessax. – Almaty. №2 (20). (In Russian)
8. Nazarbaev N.A. (1997) Yevropeyskiy soyuz: idei, praktika, perspektivy.1994-1997. – Moskva: Fond sodeystviya razvitiyu sotsialnykh i politicheskikh nauk. (In Russian)
9. Nuriddinov E. Z. (2000) Mejdunarodnoe sotrudnichestvo Uzbekistana so stranami Yevropy v usloviyax nezavisimosti: stanovlenie, razvitie, problemy. Diss. ... dokt. ist. nauk. – Tashkent: ANRUz. (In Russian)
10. Qirg‘izboev A. (2004) O‘zbekiston Respublikasining Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligi: Tarix fan. d-ri ... diss. – Toshkent: O‘zR FA. (In Uzbek)
11. Sayfullaev D. (2020) O‘zbekiston Respublikasi madaniy diplomatiyasi shakllanishi va rivojlanishi : Tarix fan. d-ri(DSs) ... diss. – Toshkent: TDSHU. (In Uzbek)
12. Sayfulin R.Sh. (2007) Sentralnoaziatskaya integrasiya: slojnyy put ot deklaratsii k realiyam / Proekty sotrudnichestva i integratsii dlya Sentralnoy Azii: sravnitelnyy analiz, vozmojnosti i perspektivy / Pod red. A.A.Knyazeva. – Bishkek. (In Russian)
13. Sharapova S. (2006) Mnogostoronnyaya diplomatiya Respubliki Uzbekistan: uchastie v universalnykh, regionalnykh i subregionalnykh organizatsiyax, mejgosudarstvennykh ob‘edineniyax: Avtoref. diss. d-ra ...polit. nauk. – Tashkent: AGOSPRUZ. (In Russian)
14. Sokolova N.V. (2010) Politicheskaya integrasiya: genezis i perspektivy razvitiya (na primere YeS, SNG, Soyuznogo Gosudarstva Rossii i Belarusi). Avtoref. diss. ... kand. polit. nauk. – Voronej. (In Russian)
15. Tokaev K.K. (2008) Vektory vneshney politiki. Yevropeyskoe napravlenie. – Almati, Kn. 2. (In Russian)

## Oriental universitetining “Al-Buxoriy” nomli jurnali

Jurnal Oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan. Maqola muallifining fikri tahririyat fikrini ifodalamaydi.

# AL-BUXORIY AL-BUKHARI

Bosh muharrir: **Farhod Maksudov**  
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Malika Nasirova**  
Mas’ul muharrir: **Govhar Rahmatova**  
Musahhih: **Gulida Norkulova**

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Norzatepa ko‘chasi, 52.  
Telefon: +998 93 004-57-77. E-mail: [al-buxoriy@orientaluniversity.uz](mailto:al-buxoriy@orientaluniversity.uz)

“AL-BUXORIY” jurnali  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining  
№ 111741 raqamli guvohnomasi bilan  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Oriental universiteti Kengashining 2025-yil 23-dekabr, 4-sonli yig‘ilish bayonnomasiga asosan nashrga ruxsat etildi.